

HARBIY XIZMATCHILARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TUSHUNCHASINING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI

Hamroyev Anvar Abdikarimovich

Mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1486885>

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish tushunchasining muhim kontseptual jihatlari, asoslari va yondashuvlari borasida so‘z borgan bo‘lib, unda qator olimlar tomonidan ijtimoiy himoyaning mazmun va mohiyatlari aks etgan ta’riflari mavjud.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy himoya, islohotlar, ilmiy-texnik va insoniy resurslar, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlar.

ANALYSIS OF THE CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF SOCIAL PROTECTION FOR MILITARY PERSONNEL

Abstract. This article explores the key conceptual aspects, foundations, and approaches to the concept of social protection for military personnel. It includes definitions that reflect the content and essence of social protection as proposed by various scholars.

Keywords: Social protection, reforms, scientific and technical resources, human resources, political and social stability, economic and legal mechanisms.

АНАЛИЗ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ОСНОВ ПОНЯТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются важные концептуальные аспекты, основы и подходы к понятию социальной защиты военнослужащих, включая определения, отражающие содержание и сущность социальной защиты, разработанные рядом ученых.

Ключевые слова: Социальная защита, реформы, научно-технические и человеческие ресурсы, политическая и социальная стабильность, экономические и правовые механизмы.

Kirish. Bugungi iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish bozor iqtisodiyotiga ega davlatlar ijtimoiy siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ijtimoiy himoya tizimi, aholining hayot darajasi va sifatini ma’lum standartlar asosida kafolatlashga qaratilgan bo‘lishi kerak, chunki zamonaviy bozor iqtisodiyoti ko‘pincha ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya etmaydi va ko‘plab sohalar va kasblar bozor talablariga mos kelmay qolmoqda.

Yurtimizda aholining munosib hayot sifatini ta'minlash uzoq muddatli davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu ilmiy-texnik va insoniy resurslarni rivojlantirishning muhim mezoniga aylanmoqda. Aholini qamrab oladigan samarali ijtimoiy himoya tizimi nafaqat farovonlikni oshiradi va mamlakatning mehnat salohiyatini kengaytiradi, balki iqtisodiy o'sishga, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida harbiy xizmatchilar uchun kafolatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining zamonaviy rivojlanish bosqichi bu sohada sifatli yangi yondashuvlarni talab qilmoqda, xususan, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy maqomini oshirish va qonunchilikda belgilangan kafolatlarni to'liq amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda. Qurolli Kuchlar tarkibi va vazifalarini optimallashtirish hamda ularni qisqartirishga doir chora-tadbirlar natijasida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada tizimli va tartibli ravishda rivojlantirish zarurati tug'ilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat ijtimoiy himoyasining ilmiy tushunchasini aniqlash, uning predmet doirasi, obyekt va subyektlarini belgilash, shuningdek, ijtimoiy himoyani amalga oshirish mezonlari va tamoyillarini aniqlash muhim nazariy va amaliy vazifalardan biridir.

Himoyalashning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlari hamda usullarini ishlab chiqish bu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bunda, avvalo, xorijiy davlatlar, MDH davlatlari, jumladan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istonning tajribasini o'rganish, ularning olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarni tahlil qilish, shuningdek, foydali va samarali jihatlarini amaliyotda qo'llash lozim.

Tadqiqot mavzusi doirasida milliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarini o'rganish davomida bir qator dissertatsiya, monografiya, ilmiy maqolalar hamda xalqaro konferensiyalarning materiallari tahlil qilindi. Muammoga nisbatan berilgan mulohazalar va tadqiqotlarni geografik jihatdan shartli ravishda uch guruhg'a bo'lib o'rganish mumkin:

Birinchi guruh. Xorijiy mutaxassislar va olimlarning tadqiqotlari;

Ikkinci guruh. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari olimlarining tadqiqotlari;

Uchinchi guruh. Mustaqil O'zbekiston sharoitida olib borilgan ilmiy izlanishlar.

Birinchi guruh. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish tajribasini o'rganish jarayonida bir qator G'arb olimlari muhim ilmiy hissa qo'shishgan. Ayniqsa, bu sohada Amerika iqtisodchilari S. Fisher, R. Dornbush va R. Shmalenzi o'z tadqiqotlari bilan taniqli hisoblanishadi.

Ular ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini boshqarish va moliyalashtirish masalalarini batafsil tahlil qilib, ushbu tizimning iqtisodiy tamoyillariga alohida e'tibor qaratishgan¹.

Bundan tashqari, boshqa xorijiy mutaxassislardan A. Barrientos, R. Sabats-Uiler va S. Dereveukslar ham ijtimoiy himoya bo'yicha xalqaro tajribalarni chuqur tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlari ijtimoiy himoya tizimining turli modellarini solishtirish, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirishda davlatning roli va majburiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari turli davlatlarning ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirishda va ularni moliyalashtirish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlarni ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega bo'ldi².

Shunday qilib, xorij mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish tajribasi ko'plab olimlarning tadqiqotlari natijasida shakllanib, ularning o'rganishlari yakunida mamlakatlar o'z milliy ijtimoiy himoya strategiyalarini yanada takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Ikkinchи guruhi. Ijtimoiy himoya va uning moliyaviy ta'minlanishi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan muhim yo'nalishlardan biridir. Bu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar ijtimoiy himoya tizimini barqaror va samarali tashkil etish, shuningdek, uning moliyaviy asoslarini mustahkamlash yo'llarini aniqlashga qaratilgan. Mazkur yo'nalishda MDH davlatlari olimlari A.S. Rjanitsiya, Yu.T. Odegov, G.P. Rudenko, N.N. Olimskix, M.V. Voronsova va V.E. Makarov kabi taniqli olim va mutaxassislarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi³.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ijtimoiy siyosatning roli yanada oshishi natijasida davlat va jamiyat oldida aholini himoya qilish tizimini shakllantirish va rivojlantirish zaruratini keltirib chiqargan. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy siyosatning nazariy va metodologik asoslari hamda ijtimoiy soha va aholini himoya qilish tizimi masalalari chuqur tadqiq etilgan. Bu borada

¹ Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика: пер с англ. / общ ред. И предисл. Сапова Г. Г. / акад. Нар хоз-ва при Правительстве Рос. Федерации. - М.: дело Лтд, 1995. - xxxiv, 829 с // Социальные и гуманитарные науки: Отечественная и зарубежная литература. Сер. 2, Экономика: Реферативный журнал. 1996. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/96-03-108-fisher-s-dornbush-r-shmalenzi-r-ekonomika-per-s-aiglobesch-red-i-predisl-sapova-g-g-akad-nar-hoz-va-pri-pravitelstve-ros-federatsii-m-del>.

² Barrientos A. Social protection and poverty //International Journal of Social Welfare. – 2011. – Т. 20. – №. 3., Sabates-Wheeler R., Devereux S. Transformative social protection: the currency of social justice //Social protection for the poor and poorest: Concepts, policies and politics. – London: Palgrave Macmillan UK, 2008. – С. 64-84.

³ Ржаницына А.С. Доходы: уровень, дифференциация, гарантии. – М.: Профиздат, 1991–С.34-38, Экономика труда. /Ю.Т.Одегов, Руденко Г.П. –М.:Учебник и практикум для вузов, 2024-С.318. URL: <https://urait.ru/viewer/ekonomika-truda-535804#page/318>, Олимских Н. Н. Социальная защита населения: понятие и Содержание //Вестник Удмуртского университета. Серия «Экономика и право». – 2007. – №. 1. – С. 179-186., Воронцова М. В., Макаров В. Е. Социальная защита и социальное обслуживание населения. – 2015.

V.A. Bogomolova, S.P. Matveev, A.K. Berkayeva, R.M. Sadikov va N.L. Bolshakova, V.G. Ishmuratova kabi olimlarning tadqiqotlari katta ilmiy asos va tajriba bo‘lib xizmat qilgan. Ular o‘z asarlarida ijtimoiy himoya tizimining turli yo‘nalishlarini, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashning o‘ziga xos jihatlarini batafsil yoritib bergan⁴.

Uchinchi guruh. Yurtimizda ijtimoiy himoya masalalariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar katta ahamiyat kasb etadi, va bu borada qator olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar diqqatga sazovordir. Ayniqsa, mahalliy olimlar S. Sherjanov, M.A. Hakimova, N.X. Nuridinovna, D.N. Rahimova, A.V. Vahhobov, L.M. Allaxverdiyeva, N. Zakirova singari tadqiqotchilarining ilmiy ishlari ijtimoiy himoya tizimining turli jihatlarini chuqr o‘rganish va takomillashtirishga qaratilgan⁵. Bu olimlar o‘z izlanishlarida aholini ijtimoiy himoyalash tizimining dolzarb masalalarini yoritib, ijtimoiy ta’midot, bandlik, pensiya va yordam tizimlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, turli sohalarda ijtimoiy himoya mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha qimmatli tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Ularning ishlari aholining turli qatlamlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda davlat va nodavlat tashkilotlarining roli va vazifalarini chuqr tahlil qilishga asos bo‘lgan.

Shuningdek, sotsiologiya fanlari doktori va dotsent X.T. Xusanovaning tadqiqotlari ham ijtimoiy himoya sohasida alohida o‘rin tutadi⁶. U o‘z ishlarida ijtimoiy himoya tizimining sotsiologik va iqtisodiy jihatlarini tahlil qilib, aholining ehtiyojlariga mos innovatsion yondashuvlarni taklif qilgan. Yurtimizdagи ushbu olimlarning ilmiy ishlari mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va uni xalqaro tajribaga mos ravishda rivojlantirish uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratishda muhim ahamiyatga ega.

⁴ Матвеев С.П. Социальная защита государственных служащих: теоретические основы построения системы, практика осуществления и проблемы правового регулирования: монография //Воронеж: Воронежский институт МВД России. 2011. –213 с.; Беркаева А.К. Социальная защита населения как приоритетное направление социальной политики государства // Вестник университета. – 2016. – №. 4. – С. 205-208., Садыков Р.М., Большакова Н. Л. Социальная защита населения муниципального образования //Концепт. – 2018. – №. 6. – С. 139-146., Павлова М. А. 96 03 108., Ишмуратова В. Г. Национальные системы социальной защиты в развитых странах //Вестник Башкирского университета. – 2015. – Т. 20. – №. 3. – С. 941-945.

⁵ Sherjanov S. O‘zbekiston aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi //Евразийский журнал права, финансовых и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 132-138., Хакимова М. и др. Микрокредитование: перспективы развития в Узбекистане. //Экономическое обозрение, 2001, №2.-С.5., Nuridinovna N. X. mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan aholi qatlaming holatini ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilish //Worldwide Cross-Disciplinary Research. – 2024. – Т. 1. – №. 1., Rahimova D. Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya tadbirlari qo‘llanilishi //O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2000, №3. –B.40., Vahhobov A. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichidagi ko‘p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hoslil bo‘lishi. –T.:Moliya, 2002. – 336 b., Allaxverdiyeva L. Aholini ijtimoiy himoyalash //Bozor, pul va kredit, 2001, №10.–B.9., Zakirova N. O‘zbekistonda kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash //Bozor, pul va kredit, 2001, №7.–B.8.

⁶ Xusanova X.T. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish dinamikasi/[monografiya] - Toshkent: Dizayn market, 2024.-284 b.

Shu qatorida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ijtimoiy himoyasi masalalari U. Omonov, G. Hashimova, Sh. Gaziyev va U. Shukurov kabi olimlarning ilmiy maqolalarida keng yoritilgan⁷. Ushbu maqolalarda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya tizimida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyati chuqr tahlil qilinadi. Mazkur ilmiy maqolalar harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya tizimida olib borilgan islohotlarning mazmum-mohiyatini ochib berish bilan cheklanilgan.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi bo‘yicha mavjud muammolar va takomillashtirish masalalari hali yetarli darajada ilmiy o‘rganilmagan. Shu bilan birga, bu yo‘nalishda xorijiy davlatlar tajribasi hamda tizimli tahlil usullaridan foydalanish zarurati mavjud. Ayni masalalar ilmiy tadqiqotlar doirasida chuqr tahlilni talab etib himoya tizimining yanada samarali ishlashiga xizmat qiladi.

⁷ Omonov U. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilishning mohiyati va ahamiyatı //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. –Т. 3. – №.1 Part 6. – С. 85-92.; Hashimova G. Qurolli kuchlar tizimida harbiy ijtimoiy ishni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish omillari //News of the NUUz. – 2024. – Т.1. – №. 1.7. – С. 238-240.; Gaziyev Sh. O‘zbekistonda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoyalash: milliy-tarixiy asoslar //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 2/S.– С. 7-14.; Shukurov U.S. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta’mnotinining ayrim amsalalari //Yurisprudensiya. – 2022. – Т. 3. – №. 2.